O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA’LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali

2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*
Mas'ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov*
Mas'ul muharrir o'rinbosari0: *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev*

T A H R I R H A Y ' A T I

Aniq va tabiiy fanlar: *k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.*
Texnika fanlari: *t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.*
Ijtimoiy-gumanitar fanlar: *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.*
Pedagogika fanlari: *p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d.,dost. M.Asqarova, PhD S.Jamoldinova, PhD, dots. M.Asranboyeva.*
Filologiya fanlari: *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.*

Texnik muharrir: R.Tursunov
Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Pochta indeksi: 160136, ***Faks:*** (0369) 227-27-21,
Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi ***Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi*** *asosida chop etiladi. Jurnal* ***Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha*** *falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.*

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2026

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA TABIIY-GEOGRAFIK OMILLARNING XUDUDIY XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI

Maxmudova Manzuraxon Juraevna
geografiya fanlari nomzodi, professor maxmudovamanzurahon40@gmail.com
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. *Bog'dorchilikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi tabiiy-geografik omillar, jumladan, iqlim sharoiti, harorat, quyosh radiatsiyasi, yog'in miqdori, suv resurslari, tuproq xususiyatlari, relьef va balandlik mintaqalanishining ahamiyati tahlil etildi.Namangan viloyatining turli tabiiy sharoitlarida bog'larni ixtisoslashtirish, intensiv bog'lar uchun yer maydonlarini tanlash, suvdan tejamkor foydalanish, iqlim o'zgarishiga moslashish va ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalari yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *bog'dorchilik, tabiiy omillar, iqlim, tuproq, suv resurslari, relьef, mevachilik, kollektor, yopiq drenajlar, urug' mevalar , tomchilatib sug'orish, ekologik barqarorlik,statistik tahlil.*

ЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И ЗНАЧЕНИЕ ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В РАЗВИТИИ САДОВОДСТВА

Махмудова Манзурахон Жураевна
кандидат географических наук, профессор
Наманганский государственный университет

Резюме. *В статье проанализировано влияние природно-географических факторов на развитие садоводства, в том числе климатических условий, температурного режима, солнечной радиации, количества атмосферных осадков, водных ресурсов, почвенных характеристик, рельефа и высотной поясности. Рассмотрены вопросы специализации садоводства с учётом разнообразия природных условий Наманганской области, выбора земельных участков для закладки интенсивных садов, рационального и водосберегающего использования водных ресурсов, адаптации к изменению климата и обеспечения экологической устойчивости.*

Ключевые слова*: садоводство, природно-географические факторы, климат, почвы, водные ресурсы, рельеф, плодоводство, коллекторы, закрытый дренаж, семечковые плодовые культуры, капельное орошение, экологическая устойчивость, статистический анализ.*

TERRITORIAL CHARACTERISTICS AND SIGNIFICANCE OF NATURAL AND GEOGRAPHICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF HORTICULTURE

Makhmudova Manzurakhon Juraevna
Candidate of Geographical Sciences, Professor
Namangan State University

Annotation. *The article analyzes the influence of natural and geographical factors on the development of horticulture, including climatic conditions, temperature regimes, solar radiation, precipitation, water resources, soil characteristics, relief, and altitudinal zonation. Particular attention is paid to the specialization of fruit cultivation under different natural conditions of the Namangan Region, the selection of suitable land for establishing intensive orchards, efficient and water-saving use of water resources, adaptation to climate change, and environmental sustainability.*

Key words: *horticulture, natural and geographical factors, climate, soils, water resources, relief, fruit growing, drainage collectors, subsurface drainage systems, pome fruit crops, drip irrigation, environmental sustainability, statistical analysis.*

KIRISH

Mamlakatimizda Namangan viloyati muhim qishloq xo'jaligi hududlaridan biri bo'lib, uning tabiiy-geografik sharoiti bog'dorchilikni rivojlantirish uchun bir qator qulay imkoniyatlarni yaratadi. Namangan viloyatida barcha toifadagi xo'jaliklardagi meva va rezavorlar maydoni 2010 yilda 24949 gektarni, 2020 yilda 32558 gektarni, 2024 yilda esa 32846 gektarni tashkil etgan. Xududdagi issiq va quyoshli vegetatsiya davri, turli mevali ekinlarni yetishtirish imkoniyati, tog'oldi hududlari va sug'oriladigan tekisliklarning mavjudligi mevachilik tarmog'ining hududiy ixtisoslashuvini shakllantiradi. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish hamda raqobatbardosh meva mahsulotlari yetishtirish viloyat agrar iqtisodiyotining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, bog'dorchilikni intensiv texnologiyalar asosida rivojlantirish ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish, qishloq aholisi bandligini kengaytirish va fermer xo'jaliklari daromadlarini ko'paytirishda katta ahamiyatga ega. Namangan viloyati Farg'ona vodiysining muhim qishloq xo'jaligi hududlaridan biri bo'lib, uning tabiiy-geografik sharoiti bog'dorchilikni rivojlantirish uchun bir qator qulay imkoniyatlarni yaratadi. Viloyatning issiq va quyoshli vegetatsiya davri, turli mevali ekinlarni yetishtirish imkoniyati, tog'oldi hududlari va sug'oriladigan tekisliklarning mavjudligi mevachilik tarmog'ining hududiy ixtisoslashuviga sharoit yaratadi. SHu bilan birga, yoz oylarida haroratning yuqori bo'lishi, yog'inlarning yil davomida notekis taqsimlanishi, suvga ehtiyojning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ortishi va ayrim maydonlarda tuproq sho'rlanishi yoki drenaj muammolarining mavjudligi bog'dorchilikni tashkil etishda jiddiy e'tibor talab qiladi. Har bir hududning tabiiy xususiyatlarini chuqur o'rganish va ularga mos yechimlarni tanlash dolzarb ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA

Namangan viloyatida zamonaviy bog'larni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy omillarni ilmiy-geografik jihatdan tahlil qilish, ularning ahamiyatini ochib berish hamda hududiy xususiyatlarga mos amaliy takliflarni berishning ahamiyati kattadir. Namangan viloyatining tabiiy-geografik sharoiti iqlim, tuproq, suv, relьef va boshqa tabiiy omillar juda qadimdan bog'dorchilikni rivojlantirishning katta imkoniyatlarini beradi .

Namangan viloyati Farg'ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan bo'lib, uning tabiiy sharoiti tekislik, daryo vodiylari, tog'oldi tekisliklari va tog' yonbag'irlarining o'zaro uyg'unligi bilan tavsiflanadi. Hududning tabiiy geografik xususiyatlari qishloq xo'jaligi ekinlarining joylashuviga ta'sir qiluvchi asosiy omillardandir, tekislik va sug'oriladigan hududlarida dehqonchilik faoliyati ancha rivojlangan. Tog'oldi mintaqalarida esa relьef, harorat, namlik va tuproq sharoitlarining farqlanishi mevachilikning ayrim turlarini ixtisoslashtirish uchun imkoniyat yaratadi. Ammo,tog'oldi hududlarining barchasi intensiv bog' uchun bir hil darajada qulay emas: yonbag'ir tikligi, tuproq qatlamining qalinligi, suv manbaiga yaqinlik va eroziya xavfi alohida o'rganishni talab etadi.

Viloyatning tabiiy sharoitlari bog'dorchilikni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratsa-da, har bir tuman va hatto alohida xo'jalik maydoni bo'yicha sharoitlar farqlanadi. SHu bois intensiv bog'larni joylashtirishda viloyatni yagona, bir hil tabiiy sharoitga ega hudud emasligi aniq ko'rinadi.

Iqlim, bog'larning o'sishi, rivojlanishi, gullashi, meva tugishi, pishishi va qishki davrdan sog'lom chiqishini belgilaydigan asosiy tabiiy omildir. Harorat, quyosh

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

radiatsiyasi, havo namligi, yog'inlar, shamol va mavsumiy o'zgarishlar meva darahtlarining biologik talablariga bevosita ta'sir ko'rsatadi,yoz fasli issiq va nisbatan quruq kechadi. Iyulь oyining o'rtacha xarorati 26-28^0) engyuqori xarorati 40-43^0, ayrim yillarda 44^0, yanvarь oyining o'rtacha xarorati esa 0^0) ayrim yillarda 28-30^0) yog'in miqdori 80-100 mm (sharqda 150 mm) atrofida , vegitatsiya davri 230-240 kun bo'lib, bunday sharoit ko'plab mevalarning pishishi va tarkibida qand moddalarining to'planishiga qulay bo'lishi mumkin. Biroq yuqori harorat va havo namligining pastligi tuproqdan suvning bug'lanishini kuchaytiradi, daraxtlarning suvga bo'lgan ehtiyojini oshirib boradi. Qishki harorat ham katta ahamiyatga ega. Meva daraxtlarining sovuqqa chidamliligi tur, nav, payvandtag, daraxtning yoshi va kuzgi parvarish holatiga bog'liq. Erta bahorda iliqlik tufayli gullashning tezlashishi, keyin esa kechki sovuq qaytishi hosilga zarar beradi.

Quyosh radiatsiyasi o'simliklarda fotosintez natijasida hosil bo'ladigan organik moddalar, daraxtning o'sishi, shox-shabbasining rivojlanishi, gul va meva shakllanishi uchun sarflanadi, quyoshli kunlarning ko'pligi mevachilik uchun qulay sharoit yaratishi mumkin, yorug'lik sharoitida mevalarning rangi, ta'mi va pishish jarayoni yaxshi shakllanadi ammo daraxtlarning zich joylashtirilishi, shoxlarining noto'g'ri shakllantirilishi va qatorlar orasidagi masofaning yetarlicha tanlanmasligi, yorug'lik kirishini cheklashi mumkin.Aslini olganda samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlarini ilmiy tahliliga ko'ra daraxtlarning biologik xususiyatlariga mos ekish sxemasini tanlash,daraxtning ortiqcha shoxlarini me'yorda kesish,bog'da havo almashinuvi va yorug'lik kirishini yaxshilash,quyosh kuyishi xavfi yuqori bo'lgan navlarda agrotexnik himoya choralarini qo'llash,har bir maydonning yorug'lik sharoitini bog' barpo etishdan oldin o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Namangan viloyatining tekislik va tog'oldi hududlari bir hil tabiiy sharoitga ega emas, relefi balandligi, nishablik darajasi, yonbag'ir ekspozitsiyasi va havo oqimlarining harakati, harorat, namlik, tuproq hosil bo'lishi va suv eroziyasiga ta'sir ko'rsatadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tekisliklarda sug'orish tarmoqlarini tashkil etish va qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish nisbatan qulay, pastqam maydonlarda havo almashinuvi sustligi, yer osti suvlarining yaqinligi yoki drenaj muammolari uchrashi ehtimoli yuqoriligi ko'rinadi.Viloyatda tog'oldi hududlarida balandlik ortishi bilan harorat rejimi va vegetatsiya davri o'zgaradi. Yonbag'irning quyoshga nisbatan yo'nalishi ham issiqlik va yorug'lik sharoitiga ta'sir ko'rsatadi,bu esa meva turlari va navlarini hududiy jihatdan joylashtirishda muhim ahamiyatga egadir. Nishablikning ortishi texnika harakatini qiyinlashtirishi, tuproq yuvilishi va suv eroziyasi xavfini kuchaytirishi sug'orish suvini yuqoriga yetkazish uchun qo'shimcha energiya sarfi talab qilinishi o'rganish zarur. Namangan viloyatida relьefni hisobga olgan holda intensiv bog'larni joylashtirishda quyidagi tamoyillarga : - nishablik va tuproq qatlamining qalinligini baholash;

- eroziya xavfi yuqori bo'lgan joylarda yerni muhofaza qilish choralarini belgilash;
- havo sovuq oqimlari to'planadigan pastqam joylarni aniqlash;
- sug'orish suvini yetkazish imkoniyati va xarajatlarini hisoblash; kabilar qatorlar yo'nalishini va tuproqni ishlash usullarini relьefga moslashtirishga amal qilish lozim.

Namangan viloyatining bog'dorchiligining eng muhim resurs suv hisoblanadi, sug'orma dexqonchilikning rivojlanishida Katta Farg'ona , kanali muhim o'rin tutadi. Sirdaryo (Norin va Qoradaryoning quyilishidan hosil bo'lgan) qishloq xo'jaligining asosiy suv mabaidir. Sirdaryoning asosiy o'ng qirg'oqlari Podshoota, Kosonsoy, G'ovasoy, CHodaksoy kabi kichik irmoqlar muz va qorlardan to'yinadi hamda sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. . Yillik suv oqimi Norin daryosida (Uchqo'rg'on posti yo'liga o'rtacha 13,5 km^3, eng ko'p 18,3 km^3 va eng oz oqimi 9,9 km^3), Qoradaryo (Kampirovot posti o'rtacha 3,8 km^3 ,eng ko'p 5,5 km^3 va eng kam 1,7 km^3)ni tashkil qiladi.

Bog'larda tomchilatib sug'orish texnologiyasi suvni daraxtlarning ildiz qismiga maqsadli yetkazish imkonini beradi. Viloyatning Chust,Kosonsoy, Namangan Pop tumanlarida bu usul suvning behuda bug'lanishi va maydon bo'ylab ortiqcha tarqalishini kamaytirishga yordam beradi.

Tuproq mevali daraxtlarning ildiz tizimi rivojlanadigan, suv va ozuqa moddalari to'planadigan asosiy tabiiy muhitdir. Tuproqning o'tloqi, o'tloqi- gidromorf tiplari keng tarqalgan mexanik tarkibi, gumus miqdori, strukturasi, sho'rlanish darajasi, kislotaliligi yoki ishqoriyligi, suv o'tkazuvchanligi va chuqur qatlamining xususiyatlari bog'ning o'sishi hamda mahsuldorligiga ta'sir ko'rsatadi.Tuproqning mexanik tarkibi suvni saqlash va o'tkazish xususiyatini belgilaydi. Qumli va qumoq tuproqlarda suv tezroq pastga siljishi mumkin, og'ir mexanik tarkibli tuproqlarda esa suvning harakati sekinlashib, ortiqcha namlik to'planish xavfi yuzaga keladi. SHu bois sug'orish rejimi tuproqning haqiqiy xususiyatlariga moslashtirilishi lozim.Tuproq sho'rlanishi intensiv bog'lar uchun jiddiy cheklovchi omil hisoblanadi. Ortiqcha tuzlar daraxt ildizlari orqali suv o'zlashtirilishini qiyinlashtirishi va o'sishni sekinlashtirishi mumkin. SHuning uchun bog' tashkil etiladigan maydonlarda tuproqning elektr o'tkazuvchanligi, tuz tarkibi va yer osti suvlarining holati tekshirilishi zarur. Bog'dorchilikda tuproqni faqat hosil olinadigan maydon sifatida emas, balki uzoq muddat davomida muhofaza qilinishi lozim bo'lgan tabiiy resurs sifatida qarash kerak.

SHamol va havo namligi intensiv bog'lardagi fiziologik jarayonlar, gullash, changlanish, kasalliklar tarqalishi va suv sarfiga ta'sir ko'rsatadi. Viloyat O'rta Osiyodagi intensiv shamol faoliyati rivojlangan regionlardan biridir. (15-20m)sek) o'rtacha tezligi, yo'nalishi va mavsumiy xususiyatlarini hisobga olmasdan bog' barpo etish daraxtlarning mexanik shikastlanishi yoki mevalarning to'kilishi xavfini oshiradi.Kuchli shamollar yosh ko'chatlarning qiyshayishi, shohlarning sinishi, mevalarning shikastlanishi va bug'lanishning ortishiga olib kelishi mumkin. SHuning uchun shamol rejimi to'g'risidagi mahalliy ma'lumotlardan foydalanish va zarur hollarda himoya daraxtzorlarini tashkil

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

etish maqsadga muvofiq. Bog'ning mikroiqlimi daraxtlar zichligi, qatorlar orasi, tuproq qoplami, sug'orish tartibi va himoya daraxtzorlariga bog'liq ravishda shakllanadi. Intensiv bog'larda mikroiqlimni boshqarish tabiiy omillarning salbiy ta'sirini kamaytirish imkonini beradi.Himoya daraxtzorlarini tashkil etishda ularning asosiy bog' bilan suv, yorug'lik va ozuqa uchun raqobati hisobga olinishi zarur.

Tahlillarga ko'ra bog'dorchilikni rivojlantirish uchun,tabiiy omillarni alohida emas, o'zaro baholash mezonlari asosida maydonning tabiiy imkoniyatlarini va cheklovlarini aniqlanish katta ahamiyatga ega. Ammo aniq reyting yoki ball berish uchun mahalliy o'lchovlar, laboratoriya natijalari va mutahasislik Malaka va bilimlar kerak bo'ladi.

Intensiv bog'dorchilikda tabiiy omillarni baholash mezonlari

Tabiiy omil	Bog'dorchilikka ta'siri	Baholash yo'nalishi
Harorat	O'sish, gullash, meva pishishi va sovuq xavfini belgilaydi	Ko'p yillik harorat, issiq kunlar, kechki sovuq
Quyosh radiatsiyasi	Fotosintez va meva sifatiga ta'sir qiladi	Yorug'lik tushishi, shox-shabba zichligi
Suv resurslari	Daraxtlarning suv bilan ta'minlanishini belgilaydi	Suv hajmi, sifati va mavsumiy mavjudligi
Tuproq	Ildiz rivoji va ozuqa ta'minotiga ta'sir qiladi	Mexanik tarkib, gumus, sho'rlanish, drenaj
Relьef	Suv oqimi, eroziya va mikroiqlimga ta'sir qiladi	Nishablik, ekspozitsiya, havo oqimi
SHamol	Bug'lanish, daraxt shikastlanishi va meva to'kilishiga ta'sir qiladi	Tezlik, yo'nalish, mavsumiy xususiyat
Havo namligi	Transpiratsiya va kasalliklar rivojiga ta'sir qiladi	Mavsumiy namlik va havo almashinuvi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Namangan viloyatida bog'dorchilikning tabiiy imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqligini ko'rish mumkin:

- yer maydonlarini dastlabki tabiiy-geografik baholash;
- tuproq va suv tahlillarini majburiy rejalashtirish;
- mahalliy sharoitga mos nav va payvandtaglarni tanlash ;
- suv tejovchi texnologiyalarni kengaytirish;
- tuproq muhofazasi tadbirlarini kuchaytirish;
- iqlimiy xavflarni muntazam kuzatish ;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish hamkorligini kuchaytirish;
- bog'larning ekologik holatini nazorat qilish;
- iqtisodiy samaradorlikni tabiiy resurslar bilan bog'liq holda hisoblash;
- hududiy monitoring tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish mavjud tabiiy sharoit va resurslardan okilona foydalanish intensiv bog'larning hosildorligini oshirish bilan birga, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ishlab chiqarish xavflarini kamaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Namangan viloyatining iqlim sharoiti, quyosh radiatsiyasi va vegetatsiya davri ko'plab mevali ekinlarni yetishtirish uchun imkoniyat yaratadi. Biroq yuqori harorat, yozgi qurg'oqchilik va bahorgi kechki sovuqlar xavfi bog'larni tashkil etishda hisobga olinishi zarur, suv resurslari intensiv bog'dorchilikning eng muhim cheklovchi omillaridan biridir. SHu sababli suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, sug'orish suvining sifatini nazorat qilish va tuproq namligini hisobga olgan holda sug'orishni tashkil etish katta ahamiyatga ega, tuproqning unumdorligi, mexanik tarkibi, sho'rlanish darajasi va drenaj holati daraxtlarning o'sishi hamda hosildorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bog' barpo etishdan oldin tuproq tahlilini o'tkazish va aniqlangan muammolarni bartaraf etish uzoq muddatli samaradorlikni ta'minlaydi, relьef va

balandlik mintaqalanishi bog'larni hududiy joylashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tekislik, tog'oldi va nishab hududlar uchun bir xil agrotexnologik yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq emas. Har bir maydonning tabiiy xususiyatlari alohida baholanishi , nav tanlashda hosildorlik bilan birga, sovuqqa, issiqqa, suv tanqisligiga va kasalliklarga chidamlilik xususiyatlari ham hisobga olinishi kerak, iqlim o'zgarishi sharoitida intensiv bog'dorchilikni barqaror rivojlantirish uchun tabiiy resurslardan tejamkor foydalanish, tuproq muhofazasi, agrometeorologik monitoring va ilmiy tavsiyalarga asoslangan boshqaruv tizimini takomillashtirish talab etiladi ,natijada, viloyat bog'dorchiligida urug'li mevalar birinchi navbatda olma, nok, behi, janubiy qismlarida danak mevalar, o'rik, shaftoli, olvali, gilos mevalaridan yuqori xosil olish va o'ziga xos tovar bog'dorchiligining shakllanishi , mintaqalararo tarqatilishi va rivojlanishi istiqbolli yo'nalish bo'lib qoladi.

Adabiyotlar

1. Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияаси. – Ташкент: Ўзбекистон миллий университети, 2014.
2. Қурбонов С.Б., Федорко В.Н. Ўзбекистон географияаси Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияаси. – Тошкент: (Янги Чирчиқ). 2024.
3. Наманган вилойати хокимлиги. «Интенсив боғдорчилик: яанги, серҳосил боғлар барпо этилади».Расмий ахборот, 24 июль 2026 йил. https://gov.uz/oz/namangan/news/view/197411
4. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Наманган вилояаати қишлоқ хўжалигининг асосий кўрсаткичлари. Расмий статистик маълумотлар. https://stat.uz/
5. Махмудова М.Ж. Табиатдан фойдаланишнинг географик асослари. – Наманган: 2022.
6. Mahmudova M.J. Farg'ona vodiysida bog'dorchilik-uzumchilikni rivojlantirish va hududiy tashkil qilishni takomillashtirish. – Namangan: Namangan Davlat universiteti, 2022
7. Makhmudova M.J. Prospects for viticulture in the new Uzbekistan. // Theoretical & Applied Science, 2021 8(100). – P. 90-92.
8. Махмудова М. Ж. Суть организации современных интенсивных садов в Наманганской области.//Экономика и социум,2022(11-2 (102) С. 495-499.
9. Mahmudova M.J., Mamadaliyeva, M.T. Socio-economic development characteristics of free economic zones with chinese participation in uzbekistan. // Экономика и социум, 2025 (8-135), – P. 272-280.

10. Махмудова М.Д., Усмонова Ю.А Перспектива реформ в социальном развитии рабочых мест.//Экономика и социум,2023 (03-106) – С. 403-407.

11. Махмудова, М. Ж., & Қўлдашева, М. N. (2026). Фарғона водийсида табиий географик шароит–боғдориликни ривожлантиришдаги асосий омил. *SCIENCE and SOCIETY*, (2-1), 96-98.